

INGLIZ TILIDA KUCHLI VA KUCHSIZ BO'G'INLARDA UNLI TOVUSHLAR REDUKSIYASINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Kudratova Sitara Rashidovna

E-mail: kudratova.s96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22637064>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 3-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 5-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Quyidagi tezis ingliz tilidagi kuchli va kuchsiz bo'g'inlarda uchraydigan unli tovushlar reduksiyasining fonetik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda kuchli va kuchsiz bo'g'inlarning talaffuzdagi o'ziga xos jihatlari, unli tovushlar reduksiyasining yuzaga kelish sabablari, hamda uning ingliz tili ritmi va talaffuzidagi o'rni tahlil qilinadi. Olingan natijalar ingliz tili fonetikasini o'qitish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kuchli va kuchsiz bo'g'inlar, unli tovushlar reduksiyasi, schwa, fonetika, talaffuz.

Abstract

This thesis examines the phonetic features of vowel reduction in strong and weak forms of syllables in English. It analyzes the distinctive pronunciation features of strong and weak forms of syllables, the causes of vowel reduction, and its role in the rhythm and pronunciation of English speech. The findings of the study can be applied to teaching English phonetics and improving learners' pronunciation skills.

Keywords: strong and weak forms of syllables, vowel reduction, schwa, phonetics, pronunciation.


Ingliz tili talaffuzining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, undagi ayrim bo'g'inlar **kuchli (strong)** va ba'zi bo'g'inlar esa **kuchsiz (weak)** tarzda talaffuz qilinadi. Bu hodisa boshqa ko'plab tillarda ham uchrasa-da, ingliz tilida kuchsiz bo'g'inlarning qanday talaffuz qilinishi va qaysi holatlarda qo'llanilishi alohida o'rganishni talab qiladi.

"**Kuchli**" va "**kuchsiz**" bo'g'inlar deganda nima tushuniladi? Bo'g'inlar ularning eshitilish darajasi va fonetik xususiyatlari asosida kuchli yoki kuchsiz bo'g'inlarga ajratiladi. Kuchli bo'g'inlar kuchsiz bo'g'inlarga nisbatan aniqroq, ravshanroq eshitiladi. Shuningdek, kuchli bo'g'inlardagi unli tovushlar sifati kuchsiz bo'g'inlardagi unlilardan farq qiladi. Kuchli va kuchsiz bo'g'inlarni ajratishda asosiy mezon unli tovushning sifati hisoblanadi. Quyida ularning fonetik xususiyatlari batafsil berilgan.

Kuchli bo'g'inlarning fonetik xususiyatlari quyidagilardan iborat: ular odatda kuchsiz bo'g'inlarga qaraganda uzoqroq davom etadi; kuchliroq intensivlik va balandroq ovoz bilan talaffuz qilinadi; so'z tarkibida aniqroq eshitiladi va asosiy fonetik yukni o'z zimmasiga oladi; ulardagi unli tovushlar aniq va ravshan talaffuz qilinadi, ya'ni unlining artikulyatsiyasi to'liq amalga oshiriladi.

Kuchsiz bo'g'inlar esa odatda **qisqaroq, tezroq** talaffuz qilinadi va ayniqsa so'zning **urg'usiz bo'g'inlarida** kelganda dayrli sezilmaydi. Bunday bo'g'inlarda unli tovushlar ko'pincha reduksiyaga uchraydi, ya'ni o'zining to'liq sifatini yo'qotib, soddalashgan shaklda talaffuz qilinadi.

Ingliz tilining standart talaffuzida eng ko'p uchraydigan to'rtta kuchsiz unli tovush quyidagilar hisoblanadi (qo'llanish chastotasiga ko'ra): /ə/, /ɪ/, /i/, /u/.



Quyida kuchsiz unli tovushlarning eng ko'p uchraydigan yozilish shakllari (spellings) keltirilgan. Mazmunli (content) so'zlarda har bir kuchsiz unli tovushni ifodalovchi harflar tagiga chizilgan:

/ə/ – annoy, tighter, council, obstruct, submit

/ɪ/ – insure, repeat, cottage

/i/ – sunny

Masalan, “happy” so'zini ko'rib chiqamiz.

- Birinchi bo'g'in (**hap**) **kuchli bo'g'in** hisoblanadi. U ikkinchi bo'g'inga nisbatan uzunroq davom etadi, balandroq va kuchliroq talaffuz qilinadi hamda undagi unli tovush aniq

va ravshan eshitiladi.

- Ikkinchi bo'g'in (**py**) esa **kuchsiz bo'g'in** hisoblanadi. U qisqaroq davom etadi, pastroq intensivlikda talaffuz qilinadi va undagi unli tovush reduksiyaga uchragan.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili **urg'uga asoslangan (stress-timed)** til hisoblanadi. Bu – nutqning ritmi va so'zlardagi urg'u asosan **kuchli bo'g'inlar** orqali shakllanishini bildiradi. Odatda urg'uli bo'g'inlar **kuchli**, urg'usiz bo'g'inlar esa **kuchsiz** bo'ladi. Kuchli va kuchsiz bo'g'inlar o'rtasidagi asosiy farqlar ularning **davomiyligi (length)**, **intensivligi (loudness)** va **unli tovush sifati (vowel quality)** bilan belgilanadi. Ushbu xususiyatlarni chuqur o'zlashtirish ingliz tilida tabiiy talaffuzni shakllantirish, nutq ritmini to'g'ri hosil qilish hamda samarali muloqot olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Vaughan, A. (2021). Rhythm typology and isochrony revisited: Perspectives from stress and syllable timing. Journal of Phonetics and Speech Sciences.
2. Roach, Peter (2009). English phonetics and phonology: a practical course. 4th edition. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Jensen, John T. (2022). The lexical and metrical phonology of English: the legacy of The sound pattern of English. Cambridge: Cambridge University Press.